| Pardayev Farrux Muzaffarovich                                                                                                                                                     |     |
| RAQAMLI TRANSFORMASIYA SHAROITIDA MENEJERLARNING RAQAMLI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH.....                                                                                   | 671 |
| Sharipova Zulfiya Shokirjonovna                                                                                                                                                   |     |
| FUQAROLAR ISHTIROKIGA ASOSLANGAN TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISH TIZIMI VA UNING IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATI .....                                                                 | 677 |
| Shukurova Parizod, Soatova Nodira Boboxonovna                                                                                                                                     |     |
| O'ZBEKISTON QISHLOQ HUDUDLARINING BARQAROR RIVOJLANISH YO'NALISHLARIDA QISHLOQ TURIZMI VA EKOTURIZM – ASOSIY USTUVOR YO'NALISHLARI .....                                          | 682 |
| Abduraxmanova Aqida Fayzulla qizi                                                                                                                                                 |     |
| KORXONALARDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNING SHAFFOFLIGINI TA'MINLASHDA BUXGALTERIYA HISOBINING ROLI.....                                                                                | 691 |
| Alimbay Shamshetov                                                                                                                                                                |     |
| BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHDA YASHIL INVESTITSİYALARINING MOLIYAVIY MEXANIZMLARI .....                                                                                         | 694 |
| Saule Ibragimova                                                                                                                                                                  |     |
| ANALYSIS OF THE STATE OF ELECTRICITY GENERATION BY WIND POWER PLANTS.....                                                                                                         | 698 |
| Saidov Mash'al Samadovich                                                                                                                                                         |     |
| TRANSFORMING TOURISM EDUCATION IN UZBEKISTAN: AN INSTITUTIONAL ANALYSIS OF PERSONNEL TRAINING SYSTEMS.....                                                                        | 706 |
| Abdullakhujaev Abdukodirkhuja, Ochilova Hilola Farmonovna                                                                                                                         |     |
| RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MOLIYAVIY HISOBOTLAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....                                                                                               | 713 |
| Elomonov Dadaxon Ozodullayevich                                                                                                                                                   |     |
| MAHALLIY BOSHQARUVDA YETAKCHILIK KONSEPSIYASI ORQALI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH (FARG'ONA VILOYATI MISOLIDA) .....                                                         | 718 |
| Siddikov Abdusalom Abdumalikovich                                                                                                                                                 |     |



|                                                                                                                                                           |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| NEW ECONOMIC PHENOMENA: FINANCING CONSUMPTION AND SAVINGS IN THE TRANSITION TO AN EXPECTATION ECONOMY .....                                               | 724 |
| <b>Isomov Bekmurod Sayfiddinovich</b>                                                                                                                     |     |
| XIZMAT KO'TSATISH SOHASIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK YO'NALISHIDA INSTITUTSIONAL O'ZGARISHLARNI AMALGA OSHIRISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI ..... | 730 |
| <b>Sh.A.Sultonov</b>                                                                                                                                      |     |
| MINTAQALARNING INVESTITSION SALOHİYATINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY METODOLOGIK YONDASHUVLARI VA ULARNING IJTIMOİY-IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI .....      | 737 |
| <b>Qobilov Anvar Eshpo'latovich</b>                                                                                                                       |     |
| KICHIK VA O'RTA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH .....                                                                         | 741 |
| <b>Madraimova Marxamat Raximberganovna</b>                                                                                                                |     |
| ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТСКО-РЕКРЕАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА РЕГИОНА .....                                                              | 748 |
| <b>Усманова Зумрад Исламовна</b>                                                                                                                          |     |
| TITLE: PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP AS A MECHANISM FOR SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE TOURISM SECTOR IN UZBEKISTAN .....                                    | 753 |
| <b>Suxrobbek M. Salayev</b>                                                                                                                               |     |
| XORAZM VILOYATI TASHQI IQTISODIY FAOLIYATIDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLARNI BAHOLASH VA UNI OPTIMALLASHTIRISH ISTIQBOLLARI .....                               | 761 |
| <b>Urunov Farrux Shanazarovich</b>                                                                                                                        |     |
| O'ZBEKISTONDA DAVLAT AUDITI TIZIMINING STRATEGIK TRANSFORMATSIYASI: INSTITUTSIONAL ISLOHOTLAR VA RAQAMLI MONITORINGNING STRATEGIK AHAMIYATI .....         | 765 |
| <b>Turabov Baxodir To'xtamishovich</b>                                                                                                                    |     |
| TURIZM SOHASIDA BANDLIKNING 2025-2030-YILLARDAGI PROGNOZ PARAMETRLARI .....                                                                               | 770 |
| <b>N.I. Shermamatova</b>                                                                                                                                  |     |
| BO'SH TURGAN DAVLAT KO'CHMAS MULK OBYEKTLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATLI JIHATLARI (O'ZBEKISTON MISOLIDA) .....                | 776 |
| <b>Sanjarov Zuxriddin Dilshod o'g'li, Astonaqulov Muzaffar Muxsin o'g'li</b>                                                                              |     |
| TIJORAT BANKLARINING RESURS BAZASI BARQARORLIGINI TAVSIFLOVCHI KO'RSATKICHLAR .....                                                                       | 781 |
| <b>Bolibekov Shahboz Baxodir o'g'li</b>                                                                                                                   |     |
| MOLIYA-KREDIT JARAYONLARI: INVESTITSION FAOLLIKNI TA'MINLASH MEKANIZMI SIFATIDA .....                                                                     | 787 |
| <b>Madaminov In'omjon Ozodovich</b>                                                                                                                       |     |
| YASHIL IQTISODIYOTDA RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH MEKANIZMLARI .....                                         | 792 |
| <b>Karimov Islombek Bekpo'lat o'g'li</b>                                                                                                                  |     |
| OLIY TA'LIMDA ILMIY TADQIQOTLAR VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI SAMARADORLIGI .....                                                                     | 798 |
| <b>Uzaydullayev Sherzod Shukurullayevich</b>                                                                                                              |     |
| XUSUSIY MAKTABLARNING BOSHQARUV TIZIMINI QAROR QABUL TIZIMLARI VA O'RGANUVCHI ANALITIKASI YORDAMIDA YANGILASHNING YO'LLARI .....                          | 802 |
| <b>Esanova Shohida</b>                                                                                                                                    |     |
| MOLIYA BOZORIDA TIJORAT BANKLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA ISLOMIY MOLIYA INSTRUMENTLARIDAN FOYDALANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....      | 812 |
| <b>Abduraxmanova Matluba Maxamadaminovna</b>                                                                                                              |     |
| KORXONALARDA KREDITOR QARZDORLIKNI BARTARAF ETISH YO'LLARI .....                                                                                          | 819 |
| <b>Mirzaev Ozod Furkatovich</b>                                                                                                                           |     |
| ЛЕКСИЧЕСКАЯ КОМПЕТЕНЦИЯ КАК КЛЮЧЕВОЙ КОМПОНЕНТ ПРОДУКТИВНОЙ ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ .....                                                                         | 824 |
| <b>Киличева Феруза Бешимовна</b>                                                                                                                          |     |
| MODERN MECHANISMS FOR MONITORING REGIONAL DEVELOPMENT IN THE CONTEXT OF DIGITAL ECONOMY .....                                                             | 828 |
| <b>Karimova Shirin Zokhid qizi</b>                                                                                                                        |     |



|                                                                                                                             |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| АЛЬТЕРНАТИВНЫЕ МЕТОДЫ КРЕДИТНОГО СКОРИНГА ДЛЯ НАСЕЛЕНИЯ БЕЗ БАНКОВСКОЙ ИСТОРИИ В УЗБЕКИСТАНЕ .....                          | 833 |
| Шухратова Мадинабону Икром кизи                                                                                             |     |
| SHAHAR EKOLOGIYASI: SHAHAR EKOTIZIMLARI VA BARQAROR RIVOJLANISH .....                                                       | 841 |
| Erkiniva Mukarram Olimjon qizi                                                                                              |     |
| CHAKANA SAVDO XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI KORXONALARDA SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI .....        | 845 |
| Abdug'aniyev Oybek Akmaljon o'g'li                                                                                          |     |
| KUZATUV KENGASHI XUSUSIYATLARINING KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGIGA TA'SIRI: NAZARIY VA KONSEPTUAL YONDASHUV.....       | 850 |
| Jumayeva Go'zal Sherxon qizi                                                                                                |     |
| EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH NATIJALARI NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI FAOLIYATINI BOSHQARISHDA MUHIM AMALIY AHAMIYAT..... | 854 |
| Sattorov Firdavs Ziyodullayevich                                                                                            |     |
| RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TIJORAT BANKLARINING O'RNI.....             | 858 |
| Abduholikov Kamoldin Mahammadjonovich                                                                                       |     |
| SANOAT KORXONALARINING HUDUDLAR KESIMIDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI STATISTIK TAHLIL QILISH.....                        | 862 |
| Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li                                                                                          |     |
| O'ZBEKISTONDA XIZMATLAR EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHNING EKOLOGIK JIHATLARI.....                                               | 867 |
| Qodirjonov Adxamjon Muxtorjon o'g'li                                                                                        |     |
| INKLYUZIV TA'LIMNI MOLIYALASHTIRISHNING XALQARO MODELLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....                                    | 872 |
| Muxamedjanova Dilshodxon Muzaffarovna                                                                                       |     |
| SANOAT KORXONALARIDA "YASHIL" TRANSFORMATSIYA JARAYONINING XUSUSIYATLARI.....                                               | 877 |
| Ismatulloeva Madinabonu Fozil qizi                                                                                          |     |
| TO'QIMACHILIK SANOATI MAHSULOTLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH .....                                                | 884 |
| Kadirova L.G.                                                                                                               |     |
| MAIN DIRECTIONS FOR DEVELOPING SOCIAL ENTREPRENEURSHIP IN THE REGION .....                                                  | 887 |
| Nasretdinova Farangis Odilovna                                                                                              |     |
| THE IMPORTANCE OF MARKETING COMMUNICATIONS IN THE SERVICES SECTOR .....                                                     | 895 |
| Mamatkulova Shoirra Djalolovna                                                                                              |     |
| AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISH — ICHKI TALABNI RAG'BATLANTIRISH VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH OMILI.....                     | 900 |
| Mustafojev G'olib Sultonmurodovich, Abruyev Abdumalik Oynazarovich                                                          |     |



# AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISH — ICHKI TALABNI RAG‘BATLANTIRISH VA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH OMILI

**Mustafojev G‘olib Sultonmurodovich**

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

v.v.b professori, iqtisodiyot fanlari doktori

email: [gmustafojev@gmail.com](mailto:gmustafojev@gmail.com)

**Abruyev Abdumalik Oynazarovich**

“Ipak Yo‘li” turizm va madaniy meros

xalqaro universiteti mustaqil tadqiqotchisi

email: [abruevabdumalik@gmail.com](mailto:abruevabdumalik@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada aholi daromadlarini oshirishning milliy iqtisodiyot rivojlanishi, ichki talabni rag‘batlantirish va kambag‘allikni qisqartirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda aholi daromadlarining shakllanish manbalari, ularning iqtisodiy o‘sinh, bandlik darajasi va ichki bozor rivojlanishiga ta’siri ilmiy jihatdan o‘rganilgan. Shuningdek, mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, yangi ish o‘rinlari yaratish va ijtimoiy himoya mexanizmlarining aholi daromadlarini oshirishdagi roli tahlil etilgan. O‘zbekistonda aholi daromadlari dinamikasi va mehnat resurslari o‘sishi asosida iqtisodiy faollikning kengayishi ko‘rsatib berilgan. Tadqiqot natijasida aholi daromadlarini oshirish orqali ichki bozor talabini kuchaytirish, ishlab chiqarishni rag‘batlantirish va barqaror iqtisodiy o‘sinhni ta’minlash bo‘yicha ilmiy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** aholi daromadlari, ichki talab, iqtisodiy o‘sinh, kambag‘allikni qisqartirish, mehnat resurslari, tadbirkorlik, ijtimoiy himoya, bandlik, milliy iqtisodiyot, bozor iqtisodiyoti.

**Abstract.** This article analyzes the importance of increasing household incomes in the development of the national economy, stimulation of domestic demand, and reduction of poverty. The study scientifically examines the sources of income formation of the population and their impact on economic growth, employment levels, and the development of the domestic market. It also analyzes the role of ongoing economic reforms, support for entrepreneurship, job creation, and social protection mechanisms in increasing household incomes. Based on the dynamics of household incomes and the growth of labor resources in Uzbekistan, the expansion of economic activity is demonstrated. As a result of the research, scientific conclusions and recommendations have been developed to strengthen domestic market demand, stimulate production, and ensure sustainable economic growth through increasing household incomes.

**Key words:** household income, domestic demand, economic growth, poverty reduction, labor resources, entrepreneurship, social protection, employment, national economy, market economy.

**Аннотация.** В данной статье анализируется значение повышения доходов населения для развития национальной экономики, стимулирования внутреннего спроса и сокращения бедности. В исследовании научно изучаются источники формирования доходов населения, их влияние на экономический рост, уровень занятости и развитие внутреннего рынка. Также анализируется роль проводимых в стране экономических реформ, поддержки предпринимательства, создания новых рабочих мест и механизмов социальной защиты в повышении доходов населения. Показана динамика доходов населения в Узбекистане и расширение экономической активности на основе роста трудовых ресурсов. В результате исследования разработаны научные выводы и предложения по укреплению спроса на внутреннем рынке, стимулированию производства и обеспечению устойчивого экономического роста за счет повышения доходов населения.

**Ключевые слова:** доходы населения, внутренний спрос, экономический рост, сокращение бедности, трудовые ресурсы, предпринимательство, социальная защита, занятость, национальная экономика, рыночная экономика.



## KIRISH

Aholi daromadlari — mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi, turmush darajasi va ijtimoiy barqarorligini baholashda muhim indikator bo'lib, makroiqtisodiy jarayonlarning barqarorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Daromadlarning hajmi va ichki tarkibi iste'mol darajasi, jamg'arma qilish imkoniyatlari va investisiyalarga moyillik kabi mikroiktisodiy xulq-atvorlarga tahdid yoki rag'bat sifatida aks etadi hamda umumiy biznes faolligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan siyosiy chora-tadbirlar: soliq imtiyozlari, maqsadli ijtimoiy yordamlar, bandlikni rag'batlantirish dasturlari, tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirish va daromad manbalarini diversifikatsiya qilish orqali aholining moliyaviy salomatligini yaxshilashga xizmat qiladi. Shuningdek, raqamli iqtisodiyotning tezkor rivoji, yangi kasb turlari va moslashuvchan bandlik shakllarining paydo bo'lishi daromad mexanizmlarining tuzilmasini tubdan o'zgartirmoqda. Shu sababli aholi daromadlarining shakllanish mexanizmi, tarkibiy tarkibi va rivojlanish dinamikasini ilmiy uslubda chuqur tahlil qilish iqtisodiy siyosatni takomillashtirish, ijtimoiy himoya tizimini optimallashtirish va barqaror o'sish modelini ishlab chiqish uchun katta amaliy ahamiyatga ega.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Aholi daromadlarini oshirish va kambag'allikni qisqartirishga oid ko'plab adabiyotlar tahlil qilingan. Xususan, portugaliyalik tadqiqotchi C.Sage'ning "Population and income"[1] nomli izlanishida aholi daromadini oshirish tufayli dunyo bo'ylab qashshoqlikning sezilarli darajada qisqarish mumkinligi hamda aholi daromadi aholi soning o'sishi, daromadning o'sishi va iste'mol dinamikasiga bevosita bog'liqligi ta'kidlangan. Biroq, M.Brueckner va X.Shvandt tomonidan yozilgan "Income and Population Growth"[2] nomli maqolada milliy daromadga ekzogen bo'lgan va texnologik o'zgarishlar ta'sirini aholining o'sishiga ta'sirini yoritib berishgan. "...hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, 10 yillik davrda aholi jon boshiga YAIM o'sishining 1 foizga oshishi mamlakatlar aholisining o'sishini taxminan 0,1 foizga oshiradi." [2]. Shu bilan birga M.J.Farland, T.D.Hill va J.K.Montez'larning "Income Inequality and Population Health: Examining the Role of Social Policy"[3] nomli maqolasi daromadlar tengsizligi va umr ko'rish davomiyligi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishga bag'ishlangan.

O'zbekistonlik olimlar — M.Abdullayevning "Ijtimoiy iqtisodiyot asoslari"[4] va N.Maxmudovning "Iqtisodiyot nazariyasi"[5] nomli darsliklarda daromadlar shakllanishining makroiqtisodiy omillarini tahlil qilinib, aholi daromadlarining asosiy manbalari sifatida mehnat faoliyati, tadbirkorlik daromadlari, ijtimoiy to'lovlar va mulkiy daromadlar ustuvorligini ta'kidlangan. Ularning fikricha, iqtisodiyotning tarkibiy modernizatsiyasi, xususi sektorning kengayishi va ijtimoiy siyosatning takomillashuvi daromadlarning barqaror o'sishiga zamin yaratadi.

X.S.So'fiyeva "Aholi daromadlari va ularning shakllanish manbalari"[6] nomli maqolada aholi daromadlari va ularning shakllanish manbalari o'rganilgan. Mahsuldor mehnat faoliyati, tadbirkorlikdan olinadigan tushumlar, ijtimoiy to'lovlar, mulkiy daromadlar va xalqaro transfertlar aholi daromadlari tizimining asosiy elementlari sifatida tahlil qilingan. Shu bilan birga, F.Qodirovning "Aholi pul daromadlari va hududiy iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari o'rtasidagi ekonometrik tahlil"[7] nomli maqolasida aholining pul daromadlari va hududiy iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ekonometrik usullar yordamida tahlil qilingan. Olim so'nggi yillarda O'zbekistonda hududiy iqtisodiy siyosatni takomillashtirish va aholi turmush darajasini oshirishga alohida e'tibor qaratilayotgan sharoitda, aholi daromadlarining o'sishi bilan investisiyalar hajmi, bandlik darajasi, yalpi hududiy mahsulot hajmi hamda chakana savdo aylanmasi kabi ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga harakat qilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda aholi daromadlarining shakllanishi va ularning ichki talab hamda iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'rganishda ilmiy tadqiqotning bir qator usullaridan foydalanildi. Jumladan, iqtisodiy tahlil, taqqoslash, statistik tahlil va umumashtirish usullari qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasida aholi daromadlari va mehnat resurslari dinamikasiga oid rasmiy statistik ma'lumotlar tahlil qilinib, ularning o'zaro bog'liqligi aniqlandi. Shuningdek, ilmiy adabiyotlar va mavjud nazariy qarashlar o'rganilib, aholi daromadlarini oshirishning iqtisodiy mexanizmlari hamda ularning ichki bozor talabini rag'batlantirish va kambag'allikni qisqartirishdagi ahamiyati kompleks yondashuv asosida baholandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Daromadlar bozor iqtisodiyotida barcha subyektlarni — tadbirkorni (ish beruvchi), yollanma ishchini hamda davlat institutlarini harakatga keltiruvchi, ularni bozor qonunlari va talablariga muvofiq ish yuritishga undovchi muhim iqtisodiy vosita hisoblanadi. Bozor munosabatlari va tovar-pul aylanmasi hukmron bo'lgan sharoitda har bir ishtirokchi asosan daromad (foyda) olish maqsadida faoliyat yuritadi. Shu nuqtai nazardan, daromadning



bozor ishtirokchilari manfaatlariga ta'sir ko'rsatish qudrati, mehnatga layoqatli har bir shaxsning moddiy rag'batini oshirish imkoniyati mamlakat taraqqiyotida hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Daromaddan to'g'ri va samarali foydalanish orqali jamiyat a'zolari sifatli, yuqori natijali mehnatga undab boriladi. Natijada mamlakat iqtisodiy o'sishning yuqori bosqichlariga erishib, rivojlangan davlatlar qatorida munosib o'rin egallashi mumkin.

Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar natijasida mehnat resurslarida ham o'sish tendensiyasi kuzatildi(1-jadval).

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki 2025-yil 2020-yilga nisbatan 7 % ga o'sish kuzatildi. Shu sababli, aholining o'sish tendensiyalariga mos keladi. Bu esa aholini daromad bilan taminlash uchun talabni kuchaytiradi.

Shu nuqtai nazarga muvofiq, daromad vositasida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishida muhim o'rin tutadigan bir necha muammolarni yechishda unumli foydalanish kerak:

- taqsimotda ijtimoiy adolat tamoyillarini qaror toptirish;
- tovarlar va xizmatlar hajmini ko'paytirish;
- tovarlar va xizmatlar sifatini oshirish;
- mehnat va boshqa resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish;
- aholi turmush farovonligini yuksaltirish (1-jadval).

1-jadval. 2020-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida mehnat resurslari sonining o'sish dinamikasi(ming kishi)[8]


| № | Yillar | O'zbekiston Respublikasi |                  |          |
|---|--------|--------------------------|------------------|----------|
|   |        | Jami                     | shundan: qishloq |          |
|   |        |                          | soni             | Ulushi % |
| 1 | 2020   | 19158,2                  | 8686,5           | 45,3     |
| 2 | 2021   | 19334,9                  | 9082,3           | 46,9     |
| 3 | 2022   | 19517,5                  | 9123,4           | 46,7     |
| 4 | 2023   | 19739,6                  | 9213,8           | 46,6     |
| 5 | 2024   | 20085,2                  | 9347,1           | 46,5     |
| 6 | 2025   | 20465,3                  | 9416,2           | 46,1     |

Ana shulardan kelib chiqqan holda, davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev boshchiligidagi Yangi O'zbekistonda mujassamlangan mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish va ushbu ulkan salohiyatning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi rolini yanada ko'tarishning eng muhim vositasi bo'lgan daromad, uni shakllantirish va taqsimlash bilan bog'liq nazariy va amaliy masalalarni chuqur va har tomonlama rivojlantirishga qaratilmoqda. Ushbu muhim masalada ilmiy yondoshuvning bosh g'oyasi va mohiyati shundan iboratki, erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida daromad vositasida jamiyatda adolat tarozisi o'rnatilishi va bu tarozining bir pallasida mehnat, uning sifati va miqdori, ikkinchi pallasida esa albatta unga ekvivalent sifatida evaziga olinadigan daromad (foyda, ish haqi va boshqa daromad turlari) yotishi kerak. Adolat tarozisi to'g'ri o'rnatilgan jamiyatda mehnatga layoqatli har bir kishi ijtimoiy ishlab chiqarishda faol ishtirok etadi, sifatli va astoydil mehnati bilan tovarlar va xizmatlar mo'l-ko'lligi, ya'ni yalpi milliy mahsulotni ko'paytirishga o'zining munosib hissasini qo'shadi, yaxshi daromad topib, o'z turmush farovonligini oshiradi va, ayni paytda, boshqalarning ham turmush darajasini oshirishga ko'maklashadi. Aksincha, adolat tarozisi buzilgan jamiyatda, ishlab chiqarish jarayoni ishtirokchilarining mehnat va uning pirovard natijalariga munosabat salbiy bo'ladi, sifatli va natijali mehnatga moddiy qiziqish past bo'ladi, mamlakat milliy iqtisodiyotining jahon xo'jaligidagi mavqei ko'tarilmaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik subyektlari iqtisodiy jihatdan to'la mustaqil bo'lib, bozor talablariga tayangan holda nimani, qancha, kim uchun va qanday ishlab chiqarish kerak degan murakkab savollarga o'zlari mustaqil javob izlab topadilar, ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish, resurslarni jalb etish, ulardan foydalanish, daromadlarni shakllantirish, ularni taqsimlash va boshqa muhim hamda korxona faoliyati uchun hal qiluvchi ahamiyatga bo'lgan sohalarida mustaqil qaror qabul qiladilar. Bunday tartib, bir tomondan, xo'jalik subyektlarining faoliyat natijalaridan yuqori manfaatdorligini, olingan daromadni o'zlashtirish va foyda olish imkoniyatlarini ta'minlasa, ikkinchi tomondan, ularning mustaqil tarzda qabul qilingan barcha qarorlari uchun mas'uliyatini, aniqrog'i to'la moddiy javobgarligini taqozo etadi.

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki aholi daromadlari hajmi 2025-yilning o'zidayoq 2020-yilga nisbatan 2,3 martaga oshgan. Bu davlat rahbari olib borayotgan islohotlarning samarasi deyish mumkin. Bu tendensiya tezkorlik bilan o'sib borayotganligini ko'rsatadi.



Aholi daromadlarini oshirish masalasi iqtisodiy siyosatning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Daromadlar o'sishi nafaqat ijtimoiy farovonlikni ta'minlaydi, balki ichki bozorda talabni rag'batlantirish orqali ishlab chiqarishni kengaytirishga xizmat qiladi. Iqtisodiy taraqqiyotning barqarorligi va uzluksizligi ko'p jihatdan aholi daromadlari darajasiga bog'liq bo'lib, xarid qobiliyatining oshishi orqali iqtisodiyotning aylanish tezligi tezlashadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi va milliy iqtisodiyotning ichki resurslarga tayanish imkoniyatlari kengayadi (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston Respublikasida aholi umumiy daromadlari hajmi mlrd so'm[9]

Daromadlar va ichki talab o'rtasidagi bog'liqlikda, aholi daromadlari o'sishi xarid qobiliyatini oshirishi, bu esa tovar va xizmatlarga talabni kuchaytirishi ko'rsatadi. Talabning o'sishi ishlab chiqarish korxonalari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi: ishlab chiqarish hajmi oshadi, yangi texnologiyalar joriy etiladi va raqobatbardoshlik kuchayadi. Shu bilan birga, ichki talabning barqarorligi iqtisodiy xavflarga nisbatan iqtisodiyotning chidamliligini oshiradi.

Shu sababli, daromadlarni oshirishning asosiy yo'nalishlari ish haqi siyosati, kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy himoya va soliq yukini optimallashtirishdan iborat. Ish haqini adolatli belgilash va mehnat unumdorligiga mos ravishda oshirish aholi daromadlarini ko'paytirishning eng samarali yo'li hisoblanadi. Kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali aholi daromad manbalari kengayadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi va iqtisodiy faollik oshadi. Ijtimoiy himoya tizimi esa aholining zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlash orqali umumiy talabni barqaror saqlashga xizmat qiladi. Soliq siyosatidagi imtiyozlar va optimallashtirish choralari aholi qo'lidagi mablag'larni ko'paytirib, ichki bozorda talabni rag'batlantiradi.

Daromadlar o'sishining iqtisodiy ta'siri keng qamrovlidir. Shu nuqtai nazardan ichki bozorda talabning o'sishi milliy ishlab chiqarishni rag'batlantiradi, ishlab chiqarish hajmining oshishi yangi texnologiyalarni joriy etishga va raqobatbardoshlikni kuchaytirishga olib keladi. Daromadlar o'sishi orqali talab va taklif muvozanati ta'minlanadi, iqtisodiy o'sish sur'atlari barqarorlashadi va mamlakatning umumiy raqobatbardoshligi oshadi. Shu bilan birga, ichki talabning kuchayishi tashqi iqtisodiy xavflarga nisbatan iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlaydi.

Aholi daromadlarini oshirish nafaqat ijtimoiy farovonlikni ta'minlaydi, balki ichki bozorni kengaytirish va iqtisodiy o'sishni barqarorlashtirishning asosiy omili sifatida strategik ahamiyatga ega. Bu jarayon orqali mamlakat iqtisodiyoti ichki resurslarga tayanadi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari rivojlanadi, aholi turmush darajasi yaxshilanadi. Shu bois, daromadlarni oshirish siyosati samarali amalga oshirilishi milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli barqarorligiga xizmat qiladi.

Demak, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat jamiyat uchun o'ta muhim bo'lgan va bozor iqtisodiyotining boshqa sub'yektlari bajara olmaydigan qator ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarni o'z zimmasiga oladi.



Bu funksiyalarni amalga oshirish katta sarf-xarajatlar bilan bog'liq bo'lib, ular yalpi ichki mahsulot tarkibida sezilarli ulushni tashkil etadi. Ularning asosiy manbai esa mamlakatda yil davomida yaratilgan milliy daromad hisoblanadi. Davlat o'z ijtimoiy va iqtisodiy vazifalarini bajarish uchun turli manbalardan byudjetni shakllantiradi, unda korxonalar va aholidan olinadigan daromad soliqlari yetakchi o'rinni egallaydi.

Kengaytirilgan ishlab chiqarish natijasida yaratilgan milliy daromad bozor iqtisodiyotining uchta asosiy sub'yekti o'rtasida taqsimlanadi, uning ma'lum qismi esa davlat byudjeti orqali qayta taqsimlanadi. Tovar-pul munosabatlari hukmron bo'lgan sharoitda har bir sub'yekt o'z daromadini ko'paytirishga intiladi, milliy daromaddagi ulushini oshirish uchun raqobatga kirishadi va bu jarayon raqobat muhitini kuchaytiradi. Daromadlarni maksimallashtirishga qaratilgan ushbu harakatlar jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim vazifalarni hal qilishga, iqtisodiy o'sish va rivojlanishni jadallashtirishga xizmat qiladi.

Bozor subyektlari o'z maqsadlariga erishishning ikki yo'li mavjud:

1. Milliy daromadning mutlaq hajmini oshirish.
2. Milliy daromad tarkibidagi ulushini ko'tarish.

Birinchi yo'lda milliy daromad hajmi ortishi bilan har bir sub'yektning daromadi ham mos ravishda ko'payadi. Masalan, korxona sof daromadlari o'ssa, ishchi-xodimlarning daromadlari va davlat byudjetiga tushadigan soliqlar ham ortib boradi. Bu holat mikrodarajada korxonalar, makrodarajada esa butun iqtisodiyot uchun moddiy manfaatdorlikni ta'minlaydi. Natijada tovar va xizmatlar hajmi ko'payadi, yangi turlari paydo bo'ladi, sifati oshadi, tannarxi arzonlashadi va resurslardan tejamkorlik bilan foydalaniladi. Bu jarayonda subyektlar manfaatlari uyg'unlashib, hamjihat harakat qilish imkonini yaratadi.

Ikkinchi yo'l esa sub'yektning milliy daromaddagi ulushini oshirishga qaratilgan bo'lib, bu holat ko'pincha manfaatlar to'qnashuviga va ziddiyatlarga olib keladi. Bunday ziddiyatlarni yumshatish uchun daromadlarni taqsimlash nisbatlarini oqilonalashtirish zarur. Shu maqsadda nazariy va amaliy tadqiqotlarni kengaytirish, ularning natijalarini amaliyotga tatbiq etishga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Asosiy mezon sifatida iqtisodiy o'sishni ta'minlash, aholi turmush darajasi va sifatini yuksaltirish xizmat qilishi kerak. Bu tadqiqotlar subyektlar manfaatlarini uyg'unlashtirishga, ishlab chiqarishning miqdor va sifat ko'rsatkichlarini rag'batlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

Yangi O'zbekistonni rivojlantirishda davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev aholi daromadlarini oshirish uchun keng ko'lamli islohotlar amalga oshirganlari tahsinga loyiq. Xususan ish o'rinlari yaratish, kambag'allikni qisqartirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va kasb-hunarga o'qitish[10] orqali aholi daromadlarini oshirish masalasi muhim ahamiyat kasb etgan.

Demak, o'tgan davr mobaynida aholi daromadlarini oshirishda uchta asosiy yo'nalishga tayanilganini ko'rsatdi:

1. Ish o'rinlari yaratish va kambag'allikni qisqartirish
2. Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va moliyaviy resurslar ajratish
3. Kasb-hunar va ta'lim orqali aholi imkoniyatlarini kengaytirish

Bu choralar aholining iqtisodiy imkoniyatlarini oshirish, turmush darajasini yaxshilash va mamlakatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan.

Xususan, aholini daromadlarini oshirishda tadbirkorlik va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash orqali quyidagi ishlar amalga oshirildi:

1. "20 ming tadbirkor – 500 ming malakali mutaxassis" dasturi orqali aholiga ish va daromad manbalari yaratildi.
2. Mahallabay asosda 51 mingta mikroloyiha amalga oshirilib, 206 mingta yangi ish o'rne yaratildi.
3. Davlat tomonidan kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun 16 trillion so'm mablag' ajratildi[11].

Aytish mumkinki olib borilayotgan islohotlar natijasi aholining daromadlarini oshirishga xizmat qildi.

## XULOSA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, aholi daromadlarini oshirish mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Daromadlar o'sishi aholining xarid qobiliyatini kuchaytiradi, bu esa ichki bozorda tovar va xizmatlarga bo'lgan talabning ortishiga olib keladi. Natijada ishlab chiqarish hajmi kengayadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi va iqtisodiy faollik oshadi. Shu bilan birga, aholi daromadlarining barqaror o'sishi kambag'allikni qisqartirish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va aholi turmush darajasini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, aholi daromadlarini oshirish siyosatida mehnat unumdorligini rag'batlantirish, tadbirkorlik va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash, yangi ish o'rinlari yaratish hamda ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish kabi chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan islohotlar milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash, ichki talabni rag'batlantirish va aholi farovonligini yanada oshirishga xizmat qiladi.



Yuqoridagi tahlil natijalaridan kelib chiqib quyidagi takliflar ilgari surilmoqda:

Birinchiidan, Mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan iqtisodiy siyosatni kuchaytirish. Korxonalarda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va mehnat samaradorligini oshirish orqali ish haqini bosqichma-bosqich ko'paytirish aholi daromadlarining barqaror o'sishini ta'minlaydi;

Ikkinchiidan, Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashni kengaytirish. Imtiyozli kreditlar, soliq yengilliklari va infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash choralarini kengaytirish orqali aholi uchun yangi daromad manbalari va ish o'rinlarini yaratish;

Uchinchiidan, Kasb-hunar ta'limi va malaka oshirish tizimini rivojlantirish. Zamonaviy mehnat bozori talablariga mos ravishda aholini kasb-hunarga o'qitish va qayta tayyorlash orqali yuqori daromadli ish o'rinlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish;

To'rtinchiidan, Ijtimoiy himoya va manzilli yordam tizimini takomillashtirish. Kam ta'minlangan aholi qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy to'lovlar va subsidiyalarni manzilli ravishda taqdim etish orqali kambag'allikni qisqartirish va aholi daromadlarini barqarorlashtirish;

Beshinchiidan, Soliq siyosati orqali aholi daromadlarini rag'batlantirish. Jismoniy shaxslar daromadlariga soliq yukini optimallashtirish va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantiruvchi soliq imtiyozlarini joriy etish orqali aholi qo'lidagi real daromadlarni oshirish;

Yuqoridagi takliflarga amal qilish orqali aholi daromadlarini barqaror oshirish, ichki bozorda talabni rag'batlantirish va iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirishga erishish mumkin. Shu bilan birga, yangi ish o'rinlari yaratilishi, tadbirkorlik faolligining ortishi va aholining turmush darajasi yaxshilanishi ta'minlanadi. Natijada kambag'allik darajasi qisqaradi, ijtimoiy barqarorlik mustahkamlanadi hamda milliy iqtisodiyotning barqaror va uzoq muddatli rivojlanishiga zamin yaratiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Colin Sage "Population and income" published by press syndicate of the university of cabridge the Pitt Building, Trumpington Street, Cambridge CB2 1RP, United Kingdom First published 1994 pages 263-282 <https://books.google.com/books?hl=ru&lr=&id=X1pNRW6r0BoC&oi=fnd&pg=PA263&dq=increase+the+income+of+the+population&ots=BM-4F6LYjiw&sig=qC66p4QhO9M4pLPf3MEyaANCvIA>
2. Markus Bruekner, Xannes Shvandt tomonidan yozilgan "Income and Population Growth" nomli maqolada The Economic Journal, Volume 125, Issue 589, 1 December 2015, Pages 1653–1676, <https://academic.oup.com/ej/article-abstract/125/589/1653/5078082>
3. Michael J. McFarland, Terrence D.Hill va Jennifer Karas Montez "Income Inequality and Population Health: Examining the Role of Social Policy"
4. Abdullaev, M. Ijtimoiy iqtisodiyot asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019. – 348 b.
5. Maxmudov, N., Rahimov, Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. – Toshkent: Universitet, 2020. – 412 b
6. So'fiyeva Xusniya Soxibjonovna "Aholi daromadlari va ularning shakllanish manbalari" Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali 2025-yil, dekabr. No12-son. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/8263/6475>
7. Farrux Qodirovning "Aholi pul daromadlari va hududiy iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari o'rtasidagi ekonometrik tahlil" Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali 2025-yil, sentyabr. No 10-son <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/7103/5341>
8. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi <https://siat.stat.uz/reports-filed/3068/table-data>
9. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika Qo'mitasi ma'lumotlari [https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx\\_data\\_321.pdf](https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_321.pdf)
10. Daryo "Maqsadimiz xalqning daromadini oshirish boy qilish" <https://daryo.uz/k/2024/03/14/maqsadimiz-xalqning-daromadini-oshirish-boy-qilish-shavkat-mirziyoyev>
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mahallalarda aholi daromadini oshirish masalalari ko'rib chiqildi 07.03.2024 <https://president.uz/uz/lists/view/7079>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2026. № 3**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>